

FORMATION OF TRADITIONAL VOCAL PERFORMANCE SKILLS IN FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS

Muxammadova Ozoda Muzrabovna
Senior Lecturer, Department of Music Education
Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract

This article widely covers the issues of teaching the theoretical and practical foundations of forming traditional vocal performance skills in future music education teachers, as well as introducing the specific features of national vocal art. It also discusses the development of students' vocal abilities, the expansion of their creative thinking, and increasing their interest in national musical heritage.

Keywords

traditional vocal performance, future music education teachers, national music, music education, practical training.

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARNING AN'ANAVIY XONANDALIK IJROCHILIGINI SHAKLLANTIRISH.

Muxammadova Ozoda Muzrabovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Musiqqa ta’limi” kafedrasida kata o’qituvchisi

Annotatsiya

Bo'lajak musiqqa ta'limi o'qituvchilariga an'anaviy xonandalik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rgatish, milliy xonandalik san'atining o'ziga xos jihatlarini o'rgatish masalalari mazkur maqolada keng yoritilgan. Shuningdek, talabalarning vokal imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning ijodiy tafakkurini kengaytirish va milliy musiqqa merosiga bo'lgan qiziqishini oshirish masalalari muhokama etilgan.

Kalit so'zlar

an'anaviy xonandalik, bo'lajak musiqqa ta'limi o'qituvchilari, milliy musiqqa, musiqqa ta'limi, amaliy mashg'ulotlar.

Xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, orzu-intilishlari va ma'naviy dunyosi uning og'zaki ijodi hamda musiqqa merosida o'z aksini topadi. Shu jihatdan, o'zbek xalqining an'anaviy xonandalik san'ati, xususan, maqom va mumtoz ashulalar yoshlarni estetik va ma'naviy tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. O'zbek xalq musiqqa merosida an'anaviy xonandalik san'ati muhim o'rin egallaydi. Bu yo'nalishdagi asarlar o'zida Vatanga muhabbat, insoniy fazilatlar, halollik, mehnatsevarlik, adolat

va tinchlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni mujassam etadi. Shu bois, bunday san‘at namunalarni o‘rganish yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘lim jarayonida an‘anaviy xonandalikni o‘rgatish samaradorligi ko‘p jihatdan mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq. Talabalarda vokal texnika, nafas olish, tovush hosil qilish, sof intonatsiya, diksiya va artikulyatsiya kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular musiqa asarlarini tinglash, tahlil qilish va ijrochilik uslublarini farqlash orqali badiiy didini rivojlantiradi.

Bugungi kunda an‘anaviy xonandalik san‘atini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu borada qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 2017-yil 17-noyabrdagi maqom san‘atini rivojlantirishga oid qaror milliy musiqa merosini asrash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Talabalarda an‘anaviy xonandalik ko‘nikmalari bosqichma-bosqich, tizimli ta‘lim jarayonida shakllanadi. Avvalo, ular milliy musiqa merosi, maqom va mumtoz ashulalarning nazariy asoslari bilan tanishadilar [5]. Bu jarayonda talabalarda musiqiy eshituv, ohangni to‘g‘ri idrok etish, ritm va usullarni his qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi. Keyingi bosqichda esa amaliy mashg‘ulotlar orqali vokal texnika - to‘g‘ri nafas olish, tovush hosil qilish, diapazonni kengaytirish, sof intonatsiya, diksiya va artikulyatsiya ustida ishlanadi [2].

Shuningdek, an‘anaviy xonandalikni o‘zlashtirishda tinglash va tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. Talabalar mohir hofizlar ijrosini tinglab, ularning ijrochilik uslubi, ovozni ishlatish mahorati, ohangdorlik va badiiy ifoda vositalarini o‘rganadilar. Bu esa ularda mustaqil ijodiy yondashuv, badiiy tafakkur va estetik didni shakllantiradi. Shu bilan birga, she‘riy matnni chuqur anglash, uning mazmunini his etib kuylash ham talabaning ijrochilik saviyasini oshiradi.

Umuman olganda, an‘anaviy xonandalik talabalarda nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va ijodiy tafakkurning uyg‘unligi asosida shakllanadi. Bu jarayon izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilganda, kelajakda milliy musiqa san‘atini davom ettiruvchi, yuksak did va mahoratga ega mutaxassislarini tarbiyalash imkonini beradi.

Talabalarda an‘anaviy xonandalik malakalarini shakllantirish uzoq va uzluksiz, tizimli yo‘lga qo‘yilgan o‘quv va ijodiy jarayonni talab qiladi. Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishda o‘qituvchidan ham bir qator ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi talab qilinadi [2]. Xususan:

- ovozlarni sozlay olish va ularning turlari haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- an‘anaviy xonandalik san‘atining tub mohiyatini chuqur anglay olishi;
- shuningdek, ijro etiluvchi ashulalardan namuna ko‘rsatish asosida ijro etib berish va tahlil qilish nota misoli orqali;
- ularning ijro etish usullari xususida o‘quvchilarga uslubiy yo‘l – yo‘riq ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.
- aytib o‘tilgan takliflar orqali jarayonni amalga oshirish kelajakda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida ham an‘anaviy xonandalik haqida bilim va ko‘nikmalarining oshishiga olib keladi.

O‘zbekistonda an‘anaviy xonandalik ijrochiligi tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, 1850-1900 yillarda o‘lkamizda bir qancha ijrochilar avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniyev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi

Boboxonov, Sodirxon hofiz, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Madali hofiz, Matyoqub Harratov singari mahoratli o‘zbek xalqining namoyonda hofizlari shular jumlasidandir. 1930-yillardan keyin an’anaviy xonandalik ijodiyotiga uchinchi avlod vakillari kirib kelishdi. Matpano ota Xudoyberganov, Hojixon Boltayev, Mixail Tolmasov, Yunus Rajabiy, Boboxon va Akmalxon So‘fixonov, Shorahim Shoumarov, Erka qori Karimov, Mamatbobo Sattorov, Berkinboy Fayziyev, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev singari hofizlar yetishib chiqdilar. Ular o‘z ijro uslublarini yaratishib og‘zaki kasbiy musiqa an’analarimiz xazinasini yanada boyitishdi [2].

Xulosa qilib aytganda, talabalarda an’anaviy xonandalik ko‘nikmalarini shakllantirish ularning nafaqat kasbiy, balki ma‘naviy-estetik rivojida ham muhim o‘rin tutadi. Milliy musiqa merosini chuqur o‘rganish orqali yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va estetik did shakllanadi.

Shu bois, oliy ta‘lim muassasalarida an’anaviy xonandalik fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarga alohida e‘tibor qaratish hamda boy musiqa merosimizdan keng foydalanish zarur. Bu esa kelajakda malakali musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash va milliy san‘atimizni davom ettirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada.rivojlantiruvchi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2017-yil, 17-noyabr.
2. Muhammadova O. An’anaviy xonandalik, o‘quv qo‘llanma, Samarqand -2024
3. Akbarov I. “Musiqalug‘ati”, –T., «O‘qituvchi».. 1987-yil.
4. Bo‘riyeva K. “An’anaviy xonandalik (Ayollar ovozi uchun)”. O‘quv qo‘llanma. –T., Turon-Iqbol, 2008-yil.
5. Rajabov I. Maqomlar. O. Ibrohimov tahririda qayta nashr qilingan. –T., “San‘at” nashriyoti, 2006-yil.